

1Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

THE LINGUOCULTURAL FEATURES OF PROVERBS USED IN THE EPIC POEM “QUNDUZ VA YULDUZ”

Jurabek Muminovich Kholmirezayev*Doctoral student at Samarkand State University named after Sharof Rashidov*jorabekxolmirzayev577@gmail.com

Science ID: FSN-0826-0023

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Qunduz va Yulduz epic, paremiological unit, proverb, saying, aphorism, linguoculturology, paremiology, national concept, ethnoculture, folklore, national mentality, literary text.

Received: 01.08.26**Accepted:** 03.08.26**Published:** 03.08.26

Abstract: This article examines the linguocultural characteristics of paremiological units employed in the Uzbek epic Qunduz va Yulduz. Proverbs, sayings, and aphoristic expressions are analyzed as significant linguistic means reflecting the historical experience, national worldview, and cultural values of the Uzbek people. The study explores the semantic structure of these paremiological units, their artistic and aesthetic functions, their role in character portrayal, and their contribution to the development of the epic narrative from a linguocultural perspective. Particular attention is paid to the national concepts embodied in the paremiological units, including courage, patience, honor, loyalty, justice, wisdom, love, and human dignity.

«QUNDUZ VA YULDUZ» DOSTONIDA QO‘LLANGAN MAQOLLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Jurabek Muminovich Xolmirzayev*Sh.Rashidov nomidagi Samarqand**davlat universiteti doktoranti*jorabekxolmirzayev577@gmail.com

Ilmiy identifikatsiya raqami: FSN-0826-0023

Samarqand, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: «Qunduz va Yulduz» dostoni, paremiologik birlik, maqol, matal, aforizm, lingvomadaniyat, paremiologiya,

Annotatsiya: Maqolada «Qunduz va Yulduz» dostoni matnida qo‘llangan paremiologik birliklarning lingvomadaniy

milliy konsept, etnomadaniyat, xalq ogʻzaki ijodi, milliy mentalitet, badiiy matn.

xususiyatlari tadqiq etiladi. Dostonda uchraydigan maqollar, matallar va aforizmlar xalqning tarixiy tajribasi, milliy tafakkuri hamda madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim til birliklari sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida paremiologik birliklarning semantik mazmuni, badiiy-estetik vazifasi, qahramonlar xarakterini yoritishdagi oʻrni va syujet rivojida funksiyalari lingvomadaniy yondashuv asosida izohlanadi. Shuningdek, ularda mujassam boʻlgan mardlik, sabr, nomus, vafodorlik, adolat, donolik, muhabbat va qadr-qimmat kabi milliy konseptlarning badiiy talqini ochib beriladi.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПОСЛОВИЦ, ИСПОЛЬЗОВАННЫХ В ДАСТАНЕ «КУНДУЗ И ЮЛДУЗ»

Джурабек Муминович Холмирзаев

Докторант

Самаркандского государственного университета имени Ш. Рашидова

Электронная почта: jorabekxolmirzayev577@gmail.com

Научный идентификационный номер: FSN-0826-0023

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: эпос «Кундуз ва Юлдуз», паремиологическая единица, пословица, поговорка, афоризм, лингвокультурология, паремиология, национальный концепт, этнокультура, устное народное творчество, национальный менталитет, художественный текст.

Аннотация: В статье исследуются лингвокультурологические особенности паремиологических единиц, функционирующих в эпосе «Кундуз ва Юлдуз». Пословицы, поговорки и афористические выражения рассматриваются как важнейшие языковые средства, отражающие исторический опыт народа, национальное мировоззрение и культурные ценности. Особое внимание уделяется семантическим особенностям паремий, их художественно-эстетическим функциям, роли в раскрытии характеров персонажей и развитии сюжетной линии. На основе лингвокультурологического подхода анализируются национальные концепты, представленные в паремиологических единицах, такие как мужество, терпение, честь, верность, справедливость, мудрость, любовь и человеческое достоинство.

Kirish. Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodi asrlar davomida xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, axloqiy-meʼyoriy qarashlari va milliy qadriyatlarini oʻzida mujassam etib kelayotgan bebaho

ma'naviy meros hisoblanadi. Dostonlar ana shu merosning yirik janrlaridan biri bo'lib, ularda xalqning ijtimoiy hayoti, urf-odatlar, e'tiqodi, estetik didi hamda ma'naviy olami badiiy obrazlar vositasida ifodalanadi. Doston tilining badiiy ta'sirchanligini ta'minlovchi vositalar orasida paremiologik birliklar alohida o'rin tutadi. Ular nafaqat nutqni obrazli va ta'sirchan qiladi, balki xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, milliy tafakkuri hamda axloqiy qadriyatlarini mujassamlashtirgan lingvomadaniy birlik sifatida ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda tilshunoslikda folklor matnlarini lingvokulturologik nuqtai nazardan o'rganishga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortdi. Xususan, paremiologik birliklar faqat xalq donishmandligining mahsuli sifatida emas, balki milliy mentalitet, etnomadaniy tafakkur va qadriyatlar tizimini ifodalovchi konseptual birliklar sifatida ham tadqiq qilinmoqda. Shu jihatdan dostonlarda uchraydigan maqol va matallarni zamonaviy lingvokulturologiya hamda paremiologiya yondashuvlari asosida tahlil qilish xalqning madaniy kodlarini, qadriyatlar tizimini va milliy tafakkurini ochib berishda muhim manba vazifasini bajaradi.

«Qunduz va Yulduz» dostoni o'zbek xalq qahramonlik eposining badiiy jihatdan mukammal namunalaridan biri bo'lib, unda voqealar rivoji, qahramonlar nutqi va muallif bayonida ko'plab paremiologik birliklardan mahorat bilan foydalanilgan. Mazkur birliklar qahramonlarning xarakterini ochish, ularning hayotiy qarashlari va ruhiy holatini ifodalash, voqealarga xalqona baho berish hamda asarning g'oyaviy mazmunini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayni paytda ular o'zbek xalqining mardlik, sabr-toqat, nomus, vafodorlik, adolat, donolik, mehmondo'stlik va insonparvarlik kabi qadriyatlarini badiiy shaklda aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy vositalar hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, o'zbek folklorshunosligida dostonlarning poetikasi, syujeti, obrazlar tizimi va til xususiyatlari yuzasidan qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, «Qunduz va Yulduz» dostoni tarkibidagi paremiologik birliklarning lingvomadaniy tabiati, ularning milliy konseptlarni ifodalashdagi o'rni hamda badiiy-pragmatik funksiyalari maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan. Shu bois mazkur masalaning lingvokulturologik yondashuv asosida tahlil qilinishi bugungi tilshunoslik uchun dolzarb ilmiy vazifalardan biri sanaladi.

Mazkur maqolaning maqsadi «Qunduz va Yulduz» dostoni matnida qo'llangan paremiologik birliklarni aniqlash, ularning semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilish, paremiologik birliklarda mujassamlashtirilgan milliy konseptlarni ochib berish hamda ularning asarning badiiy-estetik va pragmatik qurilishidagi o'rnini yoritishdan iborat.

Paremiologik birliklarni o'rganish jahon tilshunosligida uzoq tarixga ega bo'lib, bugungi kunda u nafaqat paremiologiya, balki lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika va diskurs tahlili doirasida ham tadqiq etilmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda

maqol va matallar xalqning ko'p asrlik tajribasi, milliy tafakkuri va madaniy qadriyatlarini mujassamlashtiruvchi til birliklari sifatida e'tirof etiladi. Jahon tilshunosligida paremiologiyaning nazariy asoslari G.L.Permyakov tomonidan tizimli ravishda ishlab chiqilgan bo'lib, olim maqollarni xalq tafakkurining mantiqiy modeli va madaniy tajribasining umumlashgan ifodasi sifatida tavsiflaydi. V.N.Teliya paremiologik birliklarni lingvokulturologiyaning muhim obyektlaridan biri sifatida baholab, ularda xalqning qadriyatlar tizimi, stereotiplari va madaniy xotirasi mujassamlashganligini ta'kidlaydi. V.M. Mokiyenko esa maqol va matallarning semantik tuzilishi, obrazlilik darajasi hamda milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy aspektda tadqiq etgan.

O'zbek tilshunosligida ham paremiologik birliklarni o'rganish bo'yicha salmoqli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Sh.Rahmatullayev, B.Yo'ldoshev, A.E.Mamatov, B. Jo'rayeva va boshqa olimlarning ishlarida maqol hamda matallarning semantik, uslubiy, frazeologik va lingvomadaniy jihatlari yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda paremiologik birliklarning milliy tafakkur, xalqning urf-odatlar va qadriyatlari bilan uzviy bog'liqligi ilmiy asoslangan.

O'zbek xalq dostonlari tilining muhim poetik xususiyatlaridan biri unda paremiologik birliklarning sarmahsul qo'llanishidir. Xalq og'zaki ijodining ixcham, mazmunan teran va badiiy jihatdan mukammal namunasi bo'lgan maqol hamda matallar doston matnida nafaqat bezak vositasi, balki voqealar rivojini ta'minlovchi, qahramonlar xarakterini ochuvchi hamda xalqning hayotiy tajribasini ifodalovchi muhim lingvopoetik birlik sifatida namoyon bo'ladi.

«Qunduz va Yulduz» dostoni ham paremiologik birliklarga boy asarlardan biri sanaladi. Unda xalq orasida keng tarqalgan an'anaviy maqollar bilan bir qatorda maqol qoliplari asosida yaratilgan aforistik ifodalar ham uchraydi. Bunday birliklar voqealar rivojiga tabiiy singdirilganligi sababli ular sun'iy didaktik vosita emas, balki qahramonlar tafakkuri va nutq madaniyatining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi. Natijada doston matni xalqona ruh, obrazlilik va hayotiylik kasb etadi.

Doston matnidagi paremiologik birliklar bajaradigan vazifasiga ko'ra bir necha guruhlariga ajraladi. Birinchi guruhga pand-nasihat mazmunidagi maqollar kiradi. Bunday birliklar asarda yosh avlodni tarbiyalash, to'g'ri yo'lga boshlash va hayotiy tajribani avloddan avlodga yetkazish vazifasini bajaradi. Ikkinchi guruhni axloqiy baho beruvchi paremiologik birliklar tashkil etadi. Ular orqali ezgulik va yovuzlik, mardlik va qo'rqqoqlik, halollik va xiyonat kabi qarama-qarshi tushunchalar xalqona mezon asosida baholanadi. Uchinchi guruhga esa voqealar rivojiga ta'sir ko'rsatuvchi hamda qahramonlarning ichki kechinmalarini ifodalovchi aforistik birliklar kiradi. Mazkur birliklar badiiy matnning emotsional-ekspressiv ta'sirini kuchaytirishga xizmat qiladi. Dostondagi paremiologik birliklarning yana bir muhim xususiyati shundaki, ular milliy qadriyatlarning badiiy modeli vazifasini bajaradi. Har bir maqol yoki hikmatli ibora ortida xalqning uzoq yillar davomida shakllangan hayot falsafasi, ijtimoiy tajribasi va ma'naviy

qarashlari mujassamlashgan. Shu sababli ular faqat til hodisasi sifatida emas, balki etnomadaniy axborotni saqlovchi va uzatuvchi lingvomadaniy kod sifatida ham qimmatlidir.

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, dostonida uchraydigan paremiologik birliklar asosan mardlik, sabr-toqat, muhabbat, nomus, vafodorlik, adolat, donolik va inson qadr-qimmatini kabi konseptlarni ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu konseptlar dostonning g'oyaviy mazmuni bilan uzviy bog'lanib, xalqning ideal inson haqidagi tasavvurini badiiy shaklda ifodalaydi. Shuning uchun ham paremiologik birliklarni lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish dostonning ichki mazmunini, milliy tafakkur asoslarini hamda xalqning qadriyatlar tizimini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Quyida «Qunduz va Yulduz» dostoni matnida uchraydigan paremiologik birliklar lingvomadaniy mazmuni va ifodalagan milliy konseptlari asosida tahlil qilinadi.

1. «Zo'r bilan hazillashib bo'ladimi?». «Qunduz va Yulduz» dostonida uchraydigan diqqatga sazovor paremiologik birliklardan biri «Zo'r bilan hazillashib bo'ladimi?!» iborasidir. Ushbu hikmatli jumla qirq yigitlarning Go'ro'g'lining g'azabini ko'rib, o'zaro maslahatlashayotgan o'rnida qo'llanadi: «...Bu bachchag'ar tobora ko'zi yonib, qahri kelib borayotibdi. Zo'r bilan hazillashib bo'ladimi?!». Mazkur paremiologik birlik xalq orasida keng tarqalgan pand-nasihat mazmunidagi hikmatli iboralardan biri bo'lib, kuch-qudrat egasi, hokim yoki g'azablangan inson bilan bepisand muomala qilish oqibatlarini og'ir bo'lishi mumkinligi haqidagi hayotiy tajribani umumlashtiradi. Doston kontekstida ushbu birlik qahramonlarning vaziyatni to'g'ri baholashini, Go'ro'g'lining fe'l-atvorini chuqur anglashini hamda oqibatni oldindan ko'ra bilishini ifodalaydi.

Lingvomadaniy nuqtai nazardan mazkur paremiologik birlik o'zbek xalqining ijtimoiy munosabatlarga oid qadimiy qarashlarini aks ettiradi. O'zbek madaniyatida yoshi ulug', davlat boshlig'i yoki el yetakchisiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish, vaziyatni hisobga olib muomala qilish o'zbek mezonlaridan biri sanaladi. Shu sababli «zo'r» leksemasi bu yerda faqat jismoniy kuchni emas, balki hokimiyat, obro', tajriba va ijtimoiy mavqeni ham anglatadi. «Hazillashmoq» fe'li esa shunchaki kulgi emas, balki me'yorni buzish, vaziyatni mensimaslik ma'nolarini ham o'zida mujassamlashtiradi. Natijada mazkur paremiologik birlik ehtiyotkorlik, vazminlik va ijtimoiy mas'uliyat g'oyalarini ifodalovchi lingvomadaniy kod sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur ibora doston syujetida ham muhim pragmatik vazifani bajaradi. U qirq yigitlarning dastlabki qaroridan voz kechishiga, voqealar rivojining boshqa yo'nalishga burilishiga sabab bo'ladi. Demak, paremiologik birlik nafaqat axloqiy xulosa beruvchi vosita, balki syujet kompozitsiyasini harakatga keltiruvchi badiiy unsur vazifasini ham bajaradi.

Konseptual jihatdan ushbu paremiologik birlik «hurmat», «odob», «aql», «ehtiyotkorlik» va «ijtimoiy mas’uliyat» konseptlarini ifodalaydi. Mazkur konseptlar o‘zbek xalqining milliy mentalitetida muhim o‘rin tutib, doston matnida xalqona hikmat orqali badiiy ifodasini topgan. Shu jihatdan qaralganda, «Zo‘r bilan hazillashib bo‘ladimi?!» iborasi oddiy nasihat emas, balki xalqning ko‘p asrluk ijtimoiy tajribasi va axloqiy me’yorlarini mujassamlashtirgan lingvomadaniy birlik sifatida baholanishi mumkin.

2. «Gavharni ne bilsin ushalgan sopol». «Qunduz va Yulduz» dostonida uchraydigan eng mazmundor paremiologik birliklardan biri «Gavharni ne bilsin ushalgan sopol» iborasidir. Ushbu hikmatli birlik To‘tigulning Avazxonga murojaati davomida qo‘llanadi:

«Gavharni ne bilsin ushalgan sopol,

Zarning qadrin zargar bilar har yerda»

Mazkur paremiologik birlik o‘zbek xalqining qadriyatlar tizimida insonning haqiqiy bahosini anglash g‘oyasini ifodalaydi. Maqolda qarama-qarshi qo‘yilgan gavhar – sopol obrazlari oddiy moddiy buyumlarni emas, balki ramziy ma’nolarni ifodalaydi. Gavhar – bebaho boylik, yuksak fazilat va komillik timsoli bo‘lsa, sopol – oddiylik, qadrsizlik hamda asl qiymatni anglay olmaslik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu tariqa maqolning semantik markazi haqiqiy qadriyatni faqat unga munosib inson baholay olishi haqidagi xalqona falsafaga asoslanadi. Lingvomadaniy nuqtai nazardan ushbu paremiologik birlik o‘zbek xalqining estetik va axloqiy dunyoqarashini o‘zida mujassamlashtiradi. Milliy tafakkurda insonning qadr-qimmatini uning moldunyosi bilan emas, balki aql-zakovati, odobi, or-nomusi va ma’naviy kamoloti bilan belgilanadi. Shuning uchun ham maqolda gavhar obrazi nafaqat qimmatbaho toshni, balki komil inson timsolini ham anglatadi. Sopol esa ma’naviy yetuklikdan yiroq, chinakam fazilatni anglay olmaydigan shaxsning ramziy obraziga aylanadi.

Maqolning ikkinchi misrasi «Zarning qadrin zargar bilar har yerda» birinchi fikrni yanada kuchaytiradi. Zargar obrazining tanlanishi bejiz emas. O‘zbek xalq madaniyatida zargar nafis did, nozik fahm va yuksak mahorat egasi sifatida tasavvur qilinadi. U oltinning haqiqiy qiymatini boshqalardan ko‘ra teranroq anglaydi. Shu sababli mazkur paremiologik birlikda «zargar» konsepti bilim, tajriba va estetik tafakkurning ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada maqolda insonni baholash mezoni tashqi ko‘rinish emas, balki ichki fazilat va haqiqiy qadrni anglay bilish ekani ta’kidlanadi.

Doston kontekstida ushbu hikmatli birlik To‘tigulning Avazxonga bo‘lgan munosabatini ifodalash bilan birga, uning donoligi va hayotiy tajribasini ham namoyish etadi. To‘tigul voqeaga oddiy kuzatuvchi sifatida emas, balki insonning asl fazilatini anglay oladigan dono obraz sifatida yondashadi. Shu jihatdan maqol qahramon xarakterini ochishda muhim poetik vositaga aylanadi. Mazkur paremiologik birlikning pragmatik vazifasi ham alohida e’tiborga loyiq. U tinglovchini

voqealar mohiyatini chuqurroq anglashga undaydi, qahramonning haqiqiy qiymatini xalqona mezon asosida baholashga xizmat qiladi. Shu orqali maqol faqat estetik bezak emas, balki badiiy matnning mazmuniy markazini shakllantiruvchi semantik tayanch vazifasini bajaradi.

Konseptual tahlil shuni ko'rsatadiki, mazkur paremiologik birlik «qadr-qimmat», «donolik», «komillik», «estetik did» hamda «haqiqiy baho» konseptlarini ifodalaydi. Ushbu konseptlar o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, doston matnida xalq donishmandligi orqali badiiy talqin etilgan. Demak, «Gavharni ne bilsin ushalgan sopol» iborasi o'zbek xalqining aksiologik qarashlarini mujassamlashtirgan, insonning haqiqiy qadrini anglashga chorlovchi muhim lingvomadaniy birlik hisoblanadi.

3. «Oshiq bo'lsang kuyib-yonib o'tasan, sabr qilsang yor qo'lidan tutasan». «Qunduz va Yulduz» dostonida muhabbat falsafasini xalqona hikmat orqali ifodalovchi paremiologik birliklardan biri quyidagi misrada uchraydi:

«Oshiq bo'lsang kuyib-yonib o'tasan,

Sabr qilsang yor qo'lidan tutasan»

Mazkur paremiologik birlik doston syujetida Avazxonga berilgan pand-nasihat mazmunida qo'llanadi. Unda inson hayotidagi eng murakkab tuyg'ulardan biri – muhabbatning mashaqqatli yo'li xalqona falsafa asosida umumlashtirilgan. Paremiologik birlikning birinchi qismida oshiqlik iztirob, hijron va ruhiy sinovlar bilan bog'liq holat sifatida talqin qilinsa, ikkinchi qismida sabr-toqat ushbu sinovlarni yengib o'tishning asosiy sharti sifatida ko'rsatiladi. Natijada sabab va natija munosabati xalqona hikmat shaklida ifodalanadi. Semantik jihatdan «kuyib-yonmoq» birikmasi real yonishni emas, balki ruhiy iztirob, sog'inch va ichki kechinmalarni anglatuvchi konseptual metafora vazifasini bajaradi. O'zbek xalq tafakkurida ishq ko'pincha «olov», «o't», «yonish» obrazlari orqali tasvirlanadi. Shu sababli mazkur birlikda olov obrazi inson qalbidagi kuchli hissiy holatning ramziy ifodasiga aylangan.

Paremiologik birlikning ikkinchi qismi «Sabr qilsang yor qo'lidan tutasan» o'zbek xalqining axloqiy qadriyatlari bilan bevosita bog'liq. Milliy madaniyatda sabr insonni kamolga yetkazuvchi, mushkul vaziyatlarda uni maqsadiga eltuvchi eng oliy fazilatlaridan biri hisoblanadi. Doston matnida ham sabr faqat kutish emas, balki irodani mustahkamlash, sinovlarni yengish va maqsad sari qat'iyat bilan intilishning ramzi sifatida talqin etiladi. Shu bois paremiologik birlik muhabbat va sabr tushunchalarini bir-biridan ajralmas qadriyat sifatida ifodalaydi.

Lingvomadaniy jihatdan ushbu hikmatli birlik o'zbek xalqining oilaviy qadriyatlari, sadoqat va pok muhabbat haqidagi qarashlarini aks ettiradi. Folklor an'alarida haqiqiy yorga yetishish mashaqqat, sinov va fidoyilik orqali amalga oshishi haqidagi tasavvur keng tarqalgan. Avazxonning uzoq safarlari, cheksiz mashaqqatlarni boshdan kechirishi va maqsadidan voz kechmasligi aynan ana shu xalqona qarashning badiiy ifodasidir. Demak, paremiologik birlik

syujet voqealari bilan uzviy bog‘lanib, qahramonning ruhiy olamini ochishda muhim poetik vosita vazifasini bajaradi. Pragmatik nuqtai nazardan ushbu birlik tinglovchini sabr-toqatli bo‘lishga, hissiyotga berilib shoshma-shosharlik qilmaslikka undaydi. Shu jihatdan u nafaqat doston qahramoniga, balki asarni tinglovchi yoki o‘quvchi uchun ham umumlashgan hayotiy qoida sifatida xizmat qiladi. Paremiologik birlikning didaktik kuchi ham aynan uning umuminsoniy mazmun kasb etishida namoyon bo‘ladi.

Konseptual tahlil natijasida mazkur paremiologik birlik tarkibida bir necha muhim lingvomadaniy konseptlar mujassamlashgani kuzatiladi. Birinchi navbatda, «muhabbat» konsepti inson hayotining oliy ma’naviy qadriyati sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan, «sabr» konsepti maqsad sari eltuvchi axloqiy fazilat sifatida talqin qilinadi. Uchinchidan, «sadoqat» konsepti oshiqning o‘z maqsadidan chekinmasligi orqali ifodalanadi. Nihoyat, «iroda» konsepti barcha qiyinchiliklarni yengishga xizmat qiluvchi ichki kuch sifatida badiiylashtiriladi.

Shunday qilib, «Oshiq bo‘lsang kuyib-yonib o‘lasan, sabr qilsang yor qo‘lidan tutasan» paremiologik birligi o‘zbek xalqining muhabbat falsafasi, axloqiy qarashlari va ma’naviy qadriyatlarini mujassamlashtirgan muhim lingvomadaniy birlikdir. Ushbu birlik dostonning g‘oyaviy mazmunini chuqurlashtirish, qahramon xarakterini ochish hamda milliy mentalitetni badiiy shaklda ifodalashda muhim o‘rin egallaydi.

4. «Bulbul oshno bo‘lar ochilgan gulga». «Qunduz va Yulduz» dostonida uchraydigan poetik paremiologik birliklardan biri quyidagi misralarda ifodalangan:

«Bulbul oshno bo‘lar ochilgan gulga...»

Mazkur hikmatli ifoda xalq og‘zaki ijodida keng tarqalgan bulbul va gul timsollariga asoslangan bo‘lib, o‘zbek xalqining muhabbat, go‘zallik va ruhiy yaqinlik haqidagi estetik qarashlarini mujassamlashtiradi. Doston matnida ushbu paremiologik birlik Avazxonning pariga bo‘lgan ichki kechinmalari va ruhiy holatini ifodalash jarayonida qo‘llanadi. Natijada u oddiy poetik tashbeh emas, balki xalq tafakkurida shakllangan ramziy model sifatida namoyon bo‘ladi.

Semantik jihatdan bulbul obrazi oshiq, sadoqatli yor va go‘zallik shaydosi sifatida talqin qilinadi. Gul esa go‘zallik, poklik, ma‘shuqa va komillikning ramzi hisoblanadi. Sharq mumtoz adabiyoti hamda o‘zbek folklorida bulbul va gul obrazlari o‘zaro ajralmas poetik juftlikni tashkil etadi. Shu sababli «Bulbul oshno bo‘lar ochilgan gulga» paremiologik birligi tabiiy yaqinlik, ma’naviy uyg‘unlik va ruhiy tortishuvni ifodalovchi umumlashgan xalqona hukm sifatida shakllangan.

Lingvomadaniy nuqtai nazardan mazkur paremiologik birlik o‘zbek xalqining estetik tafakkurida tabiat va inson o‘rtasidagi mushtaraklikni namoyon qiladi. Milliy madaniyatda inson ruhiy kechinmalari ko‘pincha tabiat obrazlari orqali ifodalanadi. Bulbulning gulga intilishi oshiqning yor sari intilishi bilan qiyoslanadi. Bu esa tabiat hodisalarining insoniy tuyg‘ularni

ifodalash vositasiga aylanganligini ko'rsatadi. Mazkur xususiyat xalq og'zaki ijodi poetikasining muhim belgilaridan biridir.

Paremiologik birlikning asosida yotgan «oshno bo'lmoq» komponenti ham alohida lingvomadaniy mazmunga ega. Ushbu birlik oddiy tanishlikni emas, balki qalbiy yaqinlik, ichki uyg'unlik va ruhiy mushtaraklikni anglatadi. Demak, maqolda muhabbat tashqi go'zallikka emas, balki tabiiy uyg'unlik va ma'naviy yaqinlikka asoslangan tuyg'u sifatida talqin qilinadi. Bu esa o'zbek xalqining muhabbat haqidagi milliy tasavvurlari bilan bevosita bog'liqdir.

Doston kompozitsiyasida mazkur paremiologik birlik Avazxonning ruhiy kechinmalarini ochishga xizmat qiladi. U qahramonning ma'shuqaga bo'lgan intilishi tasodifiy emas, balki tabiiy va muqarrar hodisa ekanligini badiiy jihatdan asoslaydi. Shu tariqa paremiologik birlik syujet rivojiga emotsional ta'sir ko'rsatish bilan birga, qahramon xarakterining ichki motivlarini ham yoritadi.

Konseptual tahlil natijasida mazkur paremiologik birlik tarkibida bir nechta muhim lingvomadaniy konseptlar namoyon bo'ladi. Avvalo, «muhabbat» konsepti inson hayotining eng oliy ma'naviy qadriyati sifatida gavdalanadi. Ikkinchidan, «go'zallik» konsepti gul obrazi orqali estetik mukammallik timsoliga aylanadi. Uchinchidan, «sadoqat» konsepti bulbulning guldan ayrilmasligi orqali ifodalanadi. Shuningdek, «uyg'unlik» va «tabiiylik» konseptlari ham ushbu paremiologik birlikning semantik markazini tashkil etadi. Mazkur paremiologik birlikni lingvomadaniy jihatdan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bulbul va gul obrazlari o'zbek xalqining poetik tafakkurida oddiy flora va fauna nomlari emas, balki milliy madaniyatning ramziy belgilaridir. Ular orqali muhabbat, go'zallik, sadoqat va komillik haqidagi xalqona qarashlar badiiy shaklda ifodalanadi. Shu bois «Bulbul oshno bo'lar ochilgan gulga» paremiologik birligi dostonning poetik tizimida xalqning estetik ideali va milliy mentalitetini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy kod sifatida namoyon bo'ladi.

5. «Zarning qadrin zargar bilar har yerda». «Qunduz va Yulduz» dostonida xalq donishmandligini yorqin ifodalovchi paremiologik birliklardan yana biri: «Zarning qadrin zargar bilar har yerda».

Mazkur hikmatli ibora «Gavharni ne bilsin ushalgan sopol» maqoli bilan mazmunan uzviy bog'langan holda qo'llanib, fikrning mantiqiy yakunini hosil qiladi. Agar birinchi misrada haqiqiy qadriyatni anglay olmaydigan shaxs obrazi berilgan bo'lsa, ikkinchi misrada ana shu qadriyatni baholash mezoni ko'rsatiladi. Shu tariqa ikki paremiologik birlik birgalikda xalqning aksiologik qarashlarini ifodalovchi yaxlit semantik tizimni hosil qiladi.

Semantik nuqtai nazardan maqolning asosiy tayanch leksemalari «zar» va «zargar» hisoblanadi. «Zar» leksemasi moddiy boylikni bildirishi bilan birga, xalq tafakkurida poklik, komillik, noyoblik va yuksak qadriyat timsoli sifatida ham qo'llanadi. «Zargar» esa oddiy

hunarmand emas, balki nozik did, yuksak mahorat va haqiqiy baho bera olish qobiliyatiga ega inson obrazini ifodalaydi. Demak, maqolda kasb nomi metaforik ma'noda qo'llanib, insonning ma'naviy yetukligi va estetik tafakkurini anglatuvchi ramzga aylanadi.

Lingvomadaniy jihatdan ushbu paremiologik birlik o'zbek xalqining hunarmandchilik madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Zargarlik qadimdan xalq orasida eng nufuzli va nozik kasblardan biri sanalgan. Zargar oltinning aslini soxtasidan ajrata olishi, uning qiymatini aniq belgilashi bilan hurmat qozongan. Shu tarixiy tajriba xalq tafakkurida umumlashib, insonlarni ham faqat bilimli, tajribali va farosatli kishigina to'g'ri baholay olishi haqidagi hikmatga aylangan.

Doston kontekstida mazkur paremiologik birlik Avazxonning shaxsiy fazilatlari va uning asl qadrini anglash g'oyasini ilgari suradi. Muallif shu orqali insonni tashqi ko'rinishi, boyligi yoki mavqeiga qarab emas, balki uning ma'naviy olami, jasorati, odobi va sadoqati orqali baholash kerakligini ta'kidlaydi. Bu g'oya dostonning umumiy axloqiy konsepsiyasi bilan hamohangdir.

Pragmatik jihatdan maqol tinglovchini shoshma-shosharlik bilan hukm chiqarmaslikka, har qanday hodisa va insonning asl mohiyatini anglashga da'vat etadi. Paremiologik birlikning didaktik kuchi ham aynan shunda namoyon bo'ladi, u baholash mezonini xalq tajribasi asosida belgilaydi. Natijada maqol individual fikrdan umumxalq donishmandligi darajasiga ko'tariladi.

Konseptual tahlil ushbu paremiologik birlik tarkibida «qadr», «donolik», «mahorat», «adolatli baholash», «kasbiy mukammallik» va «estetik did» konseptlari mujassamlashganini ko'rsatadi. Ayniqsa, «zargar» obrazi milliy madaniyatda kasb egasining nafaqat hunari, balki ma'naviy fazilatlari ham qadrlanishini ifodalaydi. Shu bois maqol kasb-hunar va axloqiy kamolotning o'zaro uyg'unligini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birlik sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur paremiologik birlikni lingvokulturologik nuqtai nazardan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, doston muallifi xalq orasida shakllangan hikmatli iboradan foydalanish orqali nafaqat qahramonning qadr-qimmatini yoritadi, balki o'zbek xalqining insonni baholash mezonlarini ham badiiy shaklda ifodalaydi. Natijada maqol dostonning g'oyaviy mazmunini boyituvchi, milliy qadriyatlarni ifodalovchi hamda etnomadaniy tafakkurni aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy kod sifatida namoyon bo'ladi.

Paremiologik birliklarning lingvomadaniy tahlili shuni ko'rsatadiki, ular faqat xalq donishmandligining ixcham ifodasi emas, balki milliy konseptlarning til orqali namoyon bo'lish shaklidir. Har bir maqol yoki aforistik birlik ortida xalqning tarixiy tajribasi, axloqiy me'yorlari va qadriyatlar tizimi mujassamlashgan. Shu sababli «Qunduz va Yulduz» dostonida qo'llangan paremiologik birliklarni konseptual guruhlariga ajratish ularning ichki mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi.

1. Hurmat va odob konsepti. O'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlari orasida hurmat va odob alohida o'rin egallaydi. Doston matnida uchraydigan «Zo'r bilan hazillashib bo'ladimi?!» paremiologik birligi insonning jamiyatdagi mavqei, yoshi va obro'sini e'tiborga olgan holda muomala qilish zarurligini ifodalaydi. Ushbu birlik orqali xalqning ijtimoiy munosabatlarga oid axloqiy me'yorlari badiiy shaklda aks ettirilgan. Hurmat konsepti doston qahramonlarining xatti-harakati va nutq odobi orqali ham muntazam ravishda namoyon bo'ladi.

2. Muhabbat va sadoqat konsepti. Dostonda muhabbat insonni ma'naviy jihatdan yuksaltiruvchi kuch sifatida talqin qilinadi. «Bulbul oshno bo'lar ochilgan gulga» hamda «Oshiq bo'lsang kuyib-yonib o'tasan, sabr qilsang yor qo'lidan tutasan» kabi paremiologik birliklar muhabbatning fidoyilik, sadoqat va matonat bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Bu birliklarda bulbul va gul obrazlari xalq poetik tafakkurining ramziy belgilariga aylangan bo'lib, ular oshiq va ma'shuqaning ma'naviy uyg'unligini ifodalaydi.

3. Sabr va matonat konsepti. Sabr o'zbek xalqining eng muhim axloqiy fazilatlaridan biri hisoblanadi. Doston voqealari davomida Avazxon ko'plab sinovlarni boshdan kechiradi, biroq u maqsadidan voz kechmaydi. Paremiologik birliklarda sabr insonni kamolotga yetkazuvchi va orzu-maqsadiga eltuvchi fazilat sifatida talqin qilinadi. Shu bois sabr konsepti dostonning g'oyaviy asoslaridan birini tashkil etadi.

4. Qadr-qimmat va adolat konsepti. «Gavharni ne bilsin ushalgan sopol» hamda «Zarning qadrin zargar bilar har yerda» paremiologik birliklari xalqning insonni adolatli baholash haqidagi qarashlarini ifodalaydi. Ushbu maqollar orqali haqiqiy fazilatni faqat bilimli va farosatli inson anglay olishi g'oyasi ilgari suriladi. Doston qahramonlarining fazilatlarini ham aynan shu xalqona mezon asosida baholanadi. Natijada qadr-qimmat konsepti adolat tushunchasi bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi.

5. Donolik konsepti. Donolik konsepti dostonning deyarli barcha paremiologik birliklari mazmunida kuzatiladi. Xalq maqollari va hikmatli iboralari qahramonlarga yo'l-yo'riq ko'rsatish, voqealarga xulosa berish va hayotiy tajribani umimlashtirish vazifasini bajaradi. Shu jihatdan ular xalqning ko'p asrlik tajribasi va falsafiy tafakkurining badiiy ifodasi hisoblanadi.

Umuman olganda, «Qunduz va Yulduz» dostonidagi paremiologik birliklar o'zbek xalqining milliy mentalitetini aks ettiruvchi lingvomadaniy kodlar tizimini tashkil etadi. Ular orqali hurmat, odob, muhabbat, sadoqat, sabr, donolik, adolat va qadr-qimmat kabi umuminsoniy hamda milliy qadriyatlar badiiy shaklda ifodalanadi. Aynan shu jihat doston paremiologiyasining lingvomadaniy qimmatini belgilaydi.

Jadval.1.

«Qunduz va Yulduz» dostonida qo'llangan paremiologik birliklarning lingvomadaniy tasnifi

Paremiologik birlik	Ifodalangan konsept	Lingvomadaniy mazmun	Badiiy vazifasi
Zo'r bilan hazillashib bo'ladimi?	Hurmat, odob	Kattaga hurmat, ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish	Qahramonlarning qarorini asoslaydi
Gavharni ne bilsin ushlagan sopol	Qadr-qimmat	Haqiqiy qadriyatni anglash	Axloqiy baho beradi
Zarning qadrin zargar bilar	Donolik	Haqiqiy bahoni faqat bilimli inson bera olishi	Muallif g'oyasini mustahkamlaydi
Bulbul oshno bo'lar ochilgan gulga	Muhabbat	Ruhiy uyg'unlik va tabiiy yaqinlik	Muhabbat falsafasini ifodalaydi
Oshiq bo'lsang kuyib-yonib o'tasan...	Sabr	Muhabbatning sinov orqali kamol topishi	Qahramonning ruhiy holatini ochadi

Jadvaldan ko'rinadiki, dostonda qo'llangan paremiologik birliklar mazmun va vazifasiga ko'ra turlicha bo'lsa-da, ularning barchasi xalqning milliy tafakkuri hamda qadriyatlar tizimini ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu birliklarda hurmat, donolik, muhabbat, sabr, sadoqat va adolat kabi konseptlar ustuvorlik qiladi. Bu esa doston tilining xalq og'zaki ijodi an'analari bilan uzviy bog'liqligini hamda paremiologik birliklarning badiiy matndagi lingvomadaniy salohiyati nihoyatda yuqori ekanligini ko'rsatadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, paremiologik birliklar dostonning faqat poetik bezagi emas. Ular qahramonlar xarakterini shakllantirish, voqealarga xalqona baho berish, milliy axloqiy me'yorlarni ifodalash hamda xalqning etnomadaniy xotirasini saqlash vazifalarini bajaruvchi muhim lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Aynan shu jihati bilan ular doston poetikasining ajralmas tarkibiy qismiga aylanadi.

«Qunduz va Yulduz» dostoni tarkibida qo'llangan paremiologik birliklar asarning badiiy-estetik qurilishini ta'minlovchi muhim poetik vositalardan biri hisoblanadi. Maqollar, matallar va aforistik iboralar doston matniga tabiiy singdirilgan bo'lib, ular qahramonlar nutqining xalqchil ruhini kuchaytirish, voqealarga axloqiy baho berish, syujet rivojini ta'minlash hamda asarning g'oyaviy mazmunini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan paremiologik birliklar nafaqat folklor poetikasining an'anaviy unsuri, balki dostonning lingvopoetik yaxlitligini shakllantiruvchi muhim til birliklari sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari dostonda qo'llangan paremiologik birliklar o'zbek xalqining milliy mentaliteti, tarixiy tajribasi va etnomadaniy tafakkurini o'zida mujassamlashtirgan lingvomadaniy kodlar tizimini hosil qilishini ko'rsatdi. Ular orqali hurmat, odob, muhabbat, sadoqat, sabr-toqat, donolik, adolat, qadr-qimmat va komillik kabi milliy qadriyatlar badiiy shaklda ifodalangan. Paremiologik birliklarning semantik mazmuni

va pragmatik vazifasi xalqning ijtimoiy munosabatlari, axloqiy me'yorlari hamda estetik ideallarini aks ettirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Lingvokulturologik tahlil natijasida paremiologik birliklar tarkibidagi gavhar, zar, zargar, bulbul, gul, olov, sabr kabi obrazlar oddiy leksik birlik emasligi, balki xalqning madaniy xotirasi va milliy qadriyatlarini ifodalovchi ramziy belgilar ekani aniqlandi. Mazkur obrazlar orqali doston qahramonlarining ichki kechinmalari, axloqiy fazilatlar va hayotiy qarashlari xalqona tafakkur mezonlari asosida badiiy talqin etilgan. Shuningdek, tadqiqot davomida paremiologik birliklarni alohida misollar asosida emas, balki ular ifodalagan milliy konseptlar tizimi asosida tahlil qilish samarali ilmiy natijalar berishi isbotlandi. Konseptual yondashuv paremiologik birliklarning ichki semantik tuzilishini, ularning o'zaro bog'liqligini hamda xalqning qadriyatlar tizimidagi o'rnini yanada chuqurroq ochib berishga imkon yaratdi. Shu bois doston paremiologiyasini lingvokulturologik va konseptual aspektda o'rganish folklor tilini tadqiq etishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'rayev M. O'zbek folklorshunosligi asoslari. – Toshkent: Fan, 2009. – 312 b.
2. Yo'ldoshev B., O'rinboyeva D. O'zbek xalq dostonlarining chastotali izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent, 2008. – 100 b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
4. Jirmunskiy V.M., Zarifov H.T. Uzbekskiy narodnyy geroicheskiy epos. – Moskva: GIKHL, 1947. – 303 s.
5. Jirmunskiy V.M. Tyurkskiy geroicheskiy epos. Izbrannye trudy. – Leningrad: Nauka, 1974. – 728 s.
6. Bulbul taronalari. Ergash Jumanbulbul o'g'li variantlari. – Toshkent: Fan, 1972.
7. Shoabdurahmonov Sh. «Ravshan» dostoni tili haqida. // Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o'rni. 2-kitob. – Toshkent: Fan, 1971. – B. 146–172.
8. Xoliqov A. «Go'ro'g'lining tug'ilishi» dostoni leksikasining ayrim xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. – 2002. – №6. – B. 62-63.